

ILK O'RTA ASRLAR SUG'DDA SOLIQ SIYOSATI VA TO'LOVLAR MASALASI

Xoliqulov Azizbek Yorqulovich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya:

Maqolada ilk o'rta asrlar sug'dda aholidan olingan soliq va majburiyatlar, soliq yig'adigan shaxslar unvonlari, ijara haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Mug' tog'i hujjatlari, soliq, majburiyatlar, tegirmon ijaralari, Ziroatkor ishchilar.

Sug'dda soliq siyosati va to'lovlar masalasida so'z borganda, avvalambor, yozma manblarga, xususan, Mug' tog'i arxivi hujjatlariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Bundan tashqari, xo'jalik hujjatlari orasida hisobot (kirim, sarf harajat) qaydlari matnlari, pul sarf-harajatlari matnlari mavjud. Masalan, Mug' tog'i sug'diy Nov. 6 hujjatida hukmdor Devashtichning to'rt yillik hukmronlik (709-712) davrining hisoboti saqlanib qolgan. Unda saroy xazinasiga kelib tushgan pullar bayoni aks etgan. Moliyaviy masalalarga doir yana a-5, a-11, B-9 kabi hujjatlarda pul birligi sifatida amal qilgan draxmlar haqida qimmatli ma'lumotlar qayd etilgan. Numizmat olimlarning fikriga ko'ra, Sug'dda muomalada bo'lgan draxm pullari kumushdan bo'lib, kundalik sarf harajatlarda ishlatilmagan. Har kungi sarf harajatlarda bronzadan ishlangan tanga pullar bilan muomala qilingan. Bunga Sug'd hududidan topilgan ko'plab bronza tangalar guvohlik beradi¹.

Ilk o'rta asrlarda Sug'dda oltin tanga zarb qilinmagan. Shu sababli sug'dshunoslikda draxmi dinoriy sug'd pul tizimida eng to'liq vaznli, sifatli kumush tanga ma'nosida qo'llanganligi qayd etilgan. Umuman, tangalarning sifati haqida matnlarda ko'pincha qo'shimcha izohlar uchraydi. Tadqiqotchi Sh.Shoyoqubov sug'dshunos fikrlariga asoslangan holda ularni tasniflashga harakat qilib, tangalarni shir (a)- yaxshi sifatli, kirana-toza, patsincha-tasdiqlangan, amalda ishonchli (pul) kabi holatda tasniflaydi. Olim Mug' hujjatlarida mis, bronzadan chiqarilgan pani, deb atalgan mayda chaqa pullar ham ishlatilganligi va ularning chakana savdoda amal qilib, keng hududga-janubiy Turkmaniston, O'zbekistonning barcha rayonlari-Samarqand, Buxoro, Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, hozirgi Qirg'iziston va

¹ Шоёқубов Ш. Илк ўрта асрларда Суғд. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – Б. 93.



Sharqiy Turkiston bo‘ylab tarqalganligi bilan izohlaydi². B.G‘oyibov esa tanga pullar tasnifini davom ettirib, hattoki, nymy (nym’k) drxmy – “yarim draxm” miqdoridagi teng qiymatning tilga olinganligini bunga asos sifatida keltiradi³.

Ilk o‘rta asrlar Sug‘ddagi to‘lovlar masalasiga qaytsak. Sug‘d dehqonlari tasarrufidagi erlardan olingan to‘lovlar va ularga to‘langan to‘lov hamda ishlab berish majburiyatlar to‘g‘risida sug‘diy hujjatlarda ba‘zi ma‘lumotlar saqlanib qolgan.

Dehqonlarning yirik sug‘oriladigan erlari bilan bir qatorda ayni davrda qishloq jamoasi erlari ham mavjud bo‘lgan. Masalan, Mug‘ tog‘i b-6 raqamli hujjatda Darg‘aut, Pag‘ut, Varz, Fatmaut kabi qishloqlardan yoki ishlab berish majburiyatini olgan kishilar to‘g‘risida ma‘lumot keltiriladi⁴. Manbalarda to‘lov va soliqlar haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘lumotlar etib kelmaganligi bois, sug‘diy hujjatlardagi kichik ma‘lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Davlat xazinasiga asosiy to‘lov oshiruvchi ob'ekt qishloq aholisi hisoblangan va asosiy to‘lovlar natural (mahsulot) shaklida amalga oshirilganligi hujjatlar tahlili natijasida ma‘lum bo‘ladi. Panjikent hukdori xazinasiga bug‘doy, arpa, vino, oshlangan teri, un, qoramol kabi mahsulotlarning qishloq aholisi tomonidan turli davrlarda to‘lov qilinganligi bunga oydinlik kiritadi.

Arxivda yuqorida nomi zikr etilgan don bilan bog‘liq hujjatlar bo‘lib, ularda Xufarn va Xutachanlarga yoki bo‘lmasa Zrunb qishlog‘i aholisiga 200 kafchdan don berish haqida gap boradi (1 kafch 8-10 kg). Bu hujjatlardagi don miqdori har gal qariyib 2-3 tonnaga yaqin. Omborlardan bu donning nima asosda iste‘molga tarqatilishi haqida biror narsa deyish qiyin. Har holda bu oldi-sotdi munosabati emas. Don evaziga biror narsa undirilishi ham hujjatlarda qayd etilgan emas. Bu borada tadqiqotchi Sh.Shoyoqubov sug‘dshunos M.Ishoqov fikrlariga suyanib keltirishicha, don tarqatilishi an‘anaviy qishloq jamoachiligi darajasidagi ijtimoiy munosabatlarning bir ko‘rinishi deb qaralishi mumkin keltiradi⁵.

Bug‘doy va vino sug‘diycha pδn va kpč (kapch) o‘lchov birligida to‘langan bo‘lib, pδn o‘lchov birligining hajmi bizga ma‘lum emas. Bir kapch taxminan uch litrga teng bo‘lganligi ma‘lum. Ba‘zida 8-12 kg deb keltiriladi. b-10 raqamli hujjatda

² Исҳоқов М.М. Суғдиёна тарих чоррахасида. ... – Б. 29; Шоёқубов Ш. Илк ўрта асрларда Суғд. ... – Б. 88.

³ Гойибов Б. Суғд конфедерациясининг шаклланиши, тараққиёти ва таназзули: тарих фанлари доктори диссертацияси. – Тошкент: 2017. – Б. 118; Яна қаранг: СДГМ II. – С. 206.

⁴ Согдийские документы с горы Муг. Вып. III / Хозяйственные документы / Чтение перевод и комментарии М.Н. Боголюбова и О.И. Смирновой. – М.: ИВЛ, 1962. – 83-84 с.

⁵ Шоёқубов Ш. Илк ўрта асрларда Суғд. ... – Б. 94-95.



keltirilgan Yuqori Zarafshon vohasida joylashgan Xshikatdan davlat xazinasiga 24 p^{dn} arpa, Fatmevdan 10 p^{dn} va 2 kapch makkajo‘xori, Xshikatdan 5 p^{dn} va 2 kapch arpa kabi mahsulotlar soliq sifatida keltirilgan. Bundan tashqari, b-2 hujjatida Xshikat qishlog‘idan markaz panjikentga ikkinchi oying 28-kunida 4,5 p^{dn} vino etkazib berganligi keltiriladi. Sug‘diy hujjatlarda keltirilgan ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Panch markaziy hokimiyati har bir hududdan o‘sha hududda etishtiriladigan biror mahsulotni to‘lov sifatida qabul qilgan. Ya‘ni Panjikentga qaram qishloqlarning har bir kundalik umumehtiyotlar bilan bir qatorda ma‘um bir mahsulotni etishtirishga ixtisoslashtirilgan edi. Masalan, Martushkatda teri oshlangan va shu mahsulot bilan to‘lovlar amalga oshirilgan bo‘lsa, Iskodar meva, asosan uzum etishtirishga ixtisoslashgan edi va ushbu mahsulot turi bilan markaziy hokimiyatga to‘lovlarni amalga oshirgan⁶. Aftidan, qishloqlarning tabiiy joylashuvi ularning qaysi mahsulotni etishtirishini taqozo etgan. Buni bilgan markaziy hokimiyat holatni nazorat qilishga va kuchaytirishga harakat qilgan.

Mug‘ tog‘i sug‘diy B-10 raqamli hujjatda Yuqori Zarafshon vohasida joylashgan Xshikat va Fatmevdan markazga (ya‘ni, Panjikentga) soliq to‘lovi sifatida arpa olib borilganligi to‘g‘risida keltiriladi. Bundan tashqari, Devashtichning xo‘jalik ishlari bo‘yicha muovini Farmondor O‘tning omborxonasiga kelib tushgan arpa haqida ham sug‘diy b-20 raqamli hujjatda ham ma‘lumot uchraydi. Farmondor Avat Panchga qaram bo‘lgan qishloqlardan kerakli don mahsulotlarini davlat omborxonasiga soliq yig‘imi sifatida yiqqan. b-8 raqamli hujjatida esa Farmondorning no‘xat yig‘ib olganligi keltiriladi. Devashtich Farmondor Avatga yo‘llagan maktublaridan birida unga kambag‘al va och-nahor odamlarga jo‘xori, arpa, mosh, no‘xat tarqatishni buyurgan. Ko‘rinib turganidek, davlat xalqdan natural (mahsulot) soliq sifatida yig‘ib olgan to‘lovlarni qayta xalqqa tarqatgan. Soliqning natural qismi ko‘proq xalqni boqish va ta‘minlash uchun ham ishlatilgan. Soliq sifatida yig‘ilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari dastavval davlat omborxonalarida saqlangan so‘ng xalqqa tarqatilgan. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, xalq natural soliq sifatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ham to‘lagan.

Ba‘zi qishloqlar Devashtich saroyiga kundalik ehtiyot uchun xo‘jalik mahsulotlari (arqon, egar-jabduq, kiyim-kechak, qurol-yaroq, qorinbog‘ (ayil), otlar yopinchi, har xil jangovor qalqonlar) tayyorlash bilan shug‘ullangan. Yuqori Zarafshon vohasi Zarovadk qishlog‘i aholisi ayni sohaga ixtisoslashgan bo‘lib, ular ushbu mahsulotlar bilan o‘zlarining markaziy hokimiyat oldidagi to‘lovlarni amalga oshirishgan.

⁶ Беленицкий А.М., Маршак Б.И., Распопова В.И. К характеристике товарно-денежных отношений в раннесредневековом Согде. ... – С. 19.



Ushbu holatning butun Sug'dda bo'lganligi ehtimoli yuqori. Ya'ni Sug'dning Samarqand, Buxoro, Poykent kabi shaharlarida ham alohida ixtisoslikka yo'naltirilgan va o'zlari etishtirgan mahsulotlari bilan soliq to'lovlarini amalga oshirgan alohida mavzelar bo'lgan. Bu haqda ilk o'rta asrlarga qadar bo'lgan davrga oid ma'lumot saqlanib qolmagan bo'lsa-da, toponik materiallardan bu haqida bilish mumkin. Masalan, Samarqanddagi So'zangaron, Ohangaron, Kulolon, Charmgari, Zardo'zon, Zingaron, Zargaron⁷ kabi Buxorodagi Xokistarso'zon mavzelarining bo'lganligi va hozirda ham ularning ayrimlari saqlanib qolganligi buni isbotlaydi. Mahsulot ko'rinishdagi natural to'lovlar qatorida qishloq xo'jaligida ishlab berish majburiyatlari ham bo'lganligi sug'diy hujjatlarda keltirib o'tilgan. Hatto yirik er egalari tomonidan o'zaro mardikor ishchilarni to'lov sifatida etkazish to'g'risida kelishuvlar bo'lgan. Kshtut qishlog'i hokimining Matchoga mardikorlar etkazib berganligi ma'lum. Ya'ni Kshtut hukmdori o'ziga ishlab berishga majbur yollanma ishchilarning mehnatini sotgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абрамов М.М. Гузары Самарканд. – Тошкент: Узбекистан, 1989. – С. 4.
2. Беленицкий А.М., Маршак Б.И., Распопова В.И. К характеристике товарно-денежных отношение в раннесредневековом Согде. ... – С. 19.
3. Ғойибов Б. Суғд конфедерациясининг шаклланиши, тараққиёти ва таназзули: тарих фанлари доктори диссертацияси. – Тошкент: 2017. – Б. 118; Яна қаранг: СДГМ II. – С. 206.
4. Исҳоқов М.М. Суғдиёна тарих чорраҳасида. ... – Б. 29; Шоёқубов Ш. Илк ўрта асрларда Суғд. ... – Б. 88.
5. Согдийские документы с горы Муг. Вып. III / Хозяйственные документы / Чтение перевод и комментарии М.Н. Боголюбова и О.И. Смирновой. – М.: ИВЛ, 1962. – 83-84 с.
6. Шоёқубов Ш. Илк ўрта асрларда Суғд. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – Б. 93.

⁷ Абрамов М.М. Гузары Самарканд. – Тошкент: Узбекистан, 1989. – С. 4.

